



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2020-yil. 4-son.**

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Maqsudxon YO'LDOSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Yorqinjon ODILOV  
Mamatqul JO'RAYEV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Nilufar Namozova

**Jamoatchilik kengashi:**

Muhammadjon ALIYEV  
Ergesh ABDUVALITOV  
Manzura DADAXO'JAYEVA  
Ehson TURDIQULOV

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Nashr uchun mas'ullar:**

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA  
**Tahririyat manzili:**  
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10,  
(71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriiz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 20.04.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" garniturasida 10, 11 kegl. "SANO-STANDART" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi. Buyurtma Adadi 4500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqq boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIIY-METODIK JURNALI

## Я ПЕРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**MUNDARIJA**

<b>DOLZARB MAVZU</b>	
Nusratullo JUMAXO'JA. Davlat tilining nufuzi va mavqeyi: uni tubdan oshirishda qanday dolzarb muammo va to'siqlar mavjud?.....	3
Umid XODJAMQULOV. "Maktab-laboratoriya": Toshkent viloyati tajribasi .....	6
Bashorat BAHRIIDDINOVA. O'zbek o'quv lug'atichiligi istiqbollari .....	8
<b>ADABIY TAQVIM</b>	
Dilfuza AVAZOVA. Abdulla Oripov izlagan uzuk.....	10
<b>DARS MUQADDAS</b>	
Luiza MEYLIYEVA. Ravishlarning yasalishi .....	12
Gulchehra ORTIQOVA. Eng faol tadbirkor .....	14
Saida UMAROVA. How to teach young learners in english In primary classes.....	16
<b>NAVOIYDAN NAVOLAR KELUR</b>	
Asror MO'MIN. Qush tili .....	17
<b>ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR</b>	
Nazokat JIYANOVA. Og'zaki va yozma savodxonlikka qanday erishish mumkin?.....	19
Muazzam DEDAXANOVA. "Ifodalilik va ko'chimlar" nazariyasi umumta'limda.....	20
<b>TILSHUNOSLIK</b>	
Jumanazar ABDULLAYEV. Insoniyatning eng buyuk kashfiyoti nima?.....	23
<b>TARJIMASHUNOSLIK</b>	
Mohira OTABOYEVA. Bolalar va olimlarni boshda turishga o'rgatgan ertak.....	24
<b>TAHLIL</b>	
Dilmurod ISLOMOV. Eng qadimgi, eng buyuk va umrboqiy qo'shiq .....	27
Dilnavoz TOSHNAZAROVA, Anaxon IBRAGIMOVA. "So'z birikmalari" ta'rifiga yangicha yondashuv.....	29
Iroda ERNAZAROVA. Muallif so'z ijodkorligi tushunchasi.....	31
Oybibibi ISKANDAROVA. Chingiz Aytmatov ijodida fojialar talqini .....	32
Ozoda DADAJONOVA. Muhammad Yusuf she'riyatida maqollar.....	34
Shoira RAXIMOVA. "Davlatyorbek" dostonining o'zbek versiyasi.....	35
Sharofat BO'RIBAYEVA, G'ayrat HAFIZOV. Passiv konstruksiyalarining sintaktik klassifikatsiyasi va ularning o'zbek tilida ifodalanishi.....	36
Nigora URALOVA. Tarixiy haqiqatning badiiy talqini.....	38
<b>METODIK TAVSIYA</b>	
Zulkumor MIRZAYEVA. Shekspirdan Navoiyga: mutafakkir ijodiga yangicha yondashuv.....	40
Shahodat OBIDOVA, Shohista JO'RAYEVA. Ingliz tili darslarida fanlararo bog'liqlikni reallashtirish .....	42
Nodira GAPPAROVA. Nemis tili mashg'ulotlarida gapirishni o'rgatish tajribasidan .....	43
<b>TADQIQOTLAR</b>	
Durdona EGAMNAZAROVA. Reduplikatsiyaning gap kommunikativ tuzilishidagi o'rni.....	45
<b>QO'SHIMSHA MATERIAL</b>	
Alisher UBAYDULLAYEV. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida frazeologizmlarning qo'llanilishi.....	47
Shahlo ALIMBAYEVA. Xalqning mental xususiyati tilida ham namoyon(mi?).....	48
<b>AKTUALNOE SLOVO DNYA</b>	
Klara USMONOVA. «Никто не забыт, ничто не забыто».....	49
<b>IZ OPIYTA PREPODAVATELYA</b>	
Aziza ARIPOVA. Роль информационно-коммуникационных технологий и Интернета в воспитании молодежи.....	51
Rozanna ABDULLAEVA. Информационно-компьютерные технологии в образовательном процессе .....	52
<b>YAZIKOZNAНИЕ</b>	
Barno KADIROVA. Лингвокультурологические особенности лексем с семей «образ» .....	54
Bekkenbaуэр REYMOV, Айшолпан НИЯЗОВА. Каракалпакские фразеологизмы, содержащие некротизм, на фоне национальных узоров.....	56
<b>LITERATURVEDENIE</b>	
Ruben NAZAR'YAN. Сюжетно-повествовательные различия в стихах и прозе русских классиков .....	58
Tarana GASHIMOVA. Творческие взаимосвязи и параллели: Чингиз Айтматов и Бахтияр Вагабзаде .....	59
Ulugmurod AMONOV. Новые грани творческого наследия Элбека .....	62
Lyudmila KOROT'KO. Человек и мир в трех песнях Булата Окуджавы .....	63
Zuxridin NURIDINOV. Трагедия человека абсурда в творчестве Альбера Камю.....	66
<b>NAUCHNIE ISSLEDOVANIYA</b>	
Svetlana IM. Значимость морфонологических явлений во внутрикатегориальном словообразовании.....	68
<b>PROBLEMY. POISKI. RESHENIYA</b>	
Lola AKRAMOVA. Современный подход к преподаванию русского языка как иностранного.....	71
<b>SVET NEGASNUZHICH IMEN</b>	
Anatolii LIKHODZIEVSKIY. «Логика и ясность, вот что создает прекрасный стиль» .....	73
<b>OBСУЖДАЕМ, СПОРИМ</b>	
Shavkat NISHANOV. Творческое самовыражение – основа педагогики .....	76
Feruza TASHPULATOVA. Анкетирование как метод педагогического исследования.....	76
Dilfuza ABDULLAEVA. Преподавание и изучение иностранных языков.....	78
<b>VNEKLASSNOE MEROPIRYATIE</b>	
Leyla TAGIEVA. Творческий вечер, посвященный узбекскому писателю Абдулле Кадыри .....	79



**Nusratullo JUMAXO'JA,**  
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasini professori,  
filologiya fanlari doktori

## DAVLAT TILINING NUFUZI VA MAVQEYI: uni tubdan oshirishda qanday dolzarb muammo va to'siqlar mavjud?



**ONA TILIMIZGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILISHI MUSTAQILLIKNING ILK G'ALABASI SIFATIDA QO'LGA KIRITILGANDI. ZERO, MILLIY TILINING YUKSAK MAQOMGA ERISHISHI XALQNING ERKI, HUQUQI VA, ALBATTI, DAVLAT MUSTAQILLIGI UCHUN KURASH TARIXIDA TUG' RAMZI SIFATIDA MUHLANADI.**

2004-yili "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganiga 15 yil to'lishi munosabati bilan tahliliy, sarhisob maqolalar (*qarang: "Tilga e'tibor – elga e'tibor", "Xalq so'zi", 2004-yil 5-avgust; "Fikr quyushqoni yoxud o'lik nutq – fikriy bo'shliq saltanati", "Fidokor", 2004-yil 21-oktabr; "Istiqlol tildan boshlangan", "Fidokor", 2004-yil 26-oktabr*) e'lon qildik va ularda davlat tiliga e'tibor pasayib ketayotganligi, "Davlat tili haqida"gi Qonunni amalga oshirishda sustkashlik yuz berayotganligiga jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qildik.

Qonun amaliyotini kuchaytirishda yordami tegar, degan ilinjda uning 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan ilk matni hamda ularga tegishli barcha hujjatlarni bir muqovaga jamlab, o'quv qo'llanma – majmua yaratib, 2 marta nashr ettirdik (*"Ona tili – davlat tili", "Davlat va millat ramzlari" seriyasi. – Toshkent: "Adolat", 2004; "Davlat tili haqida". – Toshkent: "Fan", 2008*). Qonunlarimiz tilini ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etib, "Qonun tili mezonlari" nomli risola chop ettirdik (*"Qonun tili mezonlari". – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2010*). Lekin ko'targan muammolarimiz, qo'ygan savollarimiz uzoq muddat muallaq qoldi. Davlat tili amaliyoti hayotda qonunda belgilangan maqomdan o'zgacharoq kechdi. Nazarimizda, qonunchilik asoslari mustahkamligi, uning hayotiy amaliyoti muammolariga yanada jiddiyroq e'tibor lozim ko'rinardi.

Nihoyat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ayni muddao bo'ldi. **Mazkur Farmon davlat tili qismatiga najot, yangi hayot bag'ishladi. "Davlat tili haqida"gi Qonun amaliyotini tubdan yangilash va to'g'ri izga solishga asos yaratdi.** Ayniqsa, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat **Davlat tilini rivojlantirish departamenti** tashkil etilishi" haqidagi modda juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu "Davlat tili haqida"gi Qonun ijrosiga doir eng zarur va ko'pdan beri kutilayotgan **amaliy mexanizm**dir.

Endi Qonun ijrosining qanday tus olishi ko'p jihatdan ana shu **mexanizmning sifatli tashkil topishi va ishlashiga bog'liq** bo'ladi. Ishning taqdirini mazkur Departamentga qanday kadrlar tanlanishi hal etadi. Munosib kadrlar tanlangandagina ishda kutilgan siljish bo'ladi, aks holda har qanday oliy mexanizm ham natija berishi qiyin. Biz bir ona tili jonkuyari sifatida Departament muvaffaqiyatli tashkil topishi va mahsuldor faoliyat ko'rsatishidan umidvormiz.

Nazarimizda, "Davlat tilini rivojlantirish departamenti"da ona tili va adabiyot mutaxassisi hamda davlat tilining haqiqiy jonkuyarlari faoliyat yuritishi lozim. Albatta, bunday mutaxassisni topish oson emas. Lekin maqsadga erishish uchun, albatta, uni topish shart. Zero, davlat tilining mamlakat miqyosidagi muammolarini muvofiqlashtirish, mutaxassislarning boshini qovush-tirish uchun, tabiiyki, soha mutaxassisi layoqati (kompetentligi)ga ega bo'lishi zarur. Bu ahvolda Prezident talabidagi natijaga erishib bo'lmaydi.

Men Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari tashkilotchiligida tuzilgan Davlat tilini rivojlantirish Konsepsiyasining so'nggi nusxasi bilan tanishib chiqdim. Rasman Konsepsiya yaratilgan. Konsepsiya bormi – bor. Lekin, mening nazarimda, u amalda bajari-ladigan uslubda yaratilmagan. Ba'zi qonun matnlariga

o'xshab rasmiy, tumtaroq, yirik jumlar bilan tuzilgan. Ijrosi ta'minlanmaydigan, qog'ozda qolib ketadigan uslubda yozilgan.

2020-yil mart oyida Xalqaro press-klubda bo'lib o'tgan, davlat tili muammolariga bag'ishlangan munozaralarda Davlat tilini rivojlantirish departamentining rahbari: "Davlat tili haqida"gi Qonunning qayta ishlangan yangi matni tuzildi va Oliy Majlis muhokamasiga taqdim etildi", – dedi. Zotan, bu ham Prezident Farmonidagi talablardan biridir. Lekin ochig'ini aytish joizki, mamlakat va millat istiqboli va keyingi taqdiriga daxldor bunday Qonunning qayta ishlangan yangi matni bunchalar tez yaratilganiga hayron qoldik. U qaysi mutaxassislar bilan birga qayta ishlandi, qanday o'zgartish va tuzatishlar kiritilgan ekan? Qolaversa, shunday dolzarb **Qonunning yangi matni xalq muhokamasiga qo'yilmaydimi?**

Axir, 1989-yilda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonun loyihasi bir emas, ikki marta umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi-ku? Radio, televideniye, tashkilotlarda, ochiq maydonlardagi keng xalq ommasi orasida jonli muhokamalar bo'lib o'tgan edi. Yodimda, muhokama jarayonlarida Davlat tili komissiyasiga 800 000 dan ortiq taklif-mulohazalar tushgan va ular Qonun matnini takomillashtirishda inobatga olingandi.

**Nega biz 30 yil oldingi darajada uyg'oq va demokrat emasmiz?** Bu borada bizning takliflarimiz shundan iboratki, "Davlat tili haqida"gi Qonunning qayta ishlangan yangi matnini umumxalq muhokamasidan o'tkazib, undan keyin Oliy Majlisda muhokama qilib tasdiqlash kerak.

Prezident farmonida Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Atamashunoslik komissiyasini tashkil etish belgilangan. Bu ham davlat tili sohasidagi adolat va haqiqatni tiklashning bir yo'li. Chunki mustaqillikning dastlabki yillarida Atamashunoslik qo'mitasi tuzilgan va u samarali faoliyat ko'rsatgan edi. Ammo farmon e'lon qilinganidan beri ko'p oylar o'tib bormoqdaki, biz mutaxassislar hanuzgacha atamashunoslik komissiyasi tuzildimi yo tuzilmadimi, kim rais, kim a'zo bo'ldi – bundan bexabarmiz.

O'z o'rnida yodga olish joizki, dastlabki Atamashunoslik qo'mitasining raisi o'z asarlari bilan jahon adabiyoti maydonidan o'rin olgan adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov edi. Qo'mita huzurida fan, xo'jalik, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha shu'balar shakllantirilgan, shu'ba raisi o'z sohasining akademigi, shu'ba a'zolari o'nlab olimlar edi. Har bir soha bo'yicha termin va atamalar to'planar, saralanar, muhokama qilinar, matbuotda e'lon qilinardi. Ana shu yo'l bilan 40 dan ortiq sohalar bo'yicha terminlar lug'atlari tuzilgan va nashr etilgan edi.

Shundoq shakllangan Atamashunoslik qo'mitasini qisqartirib yuborish davrning katta xatolaridan biri bo'lgandi. Hozirgi Atamashunoslik komissiyasi yopiq joyda tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasiga kirish-chiqish juda qiyin, hamma ham kira olmaydi. **Atamashunoslik komissiyasi xalqqa ochiq bo'lishi kerak.** Oldingi Atamashunoslik qo'mitasiga xohlagan kishi kira olar, fikr almashib chiqib ketardi. U O'zR FA Til va adabi-

yot ilmiy tadqiqot institutida joylashgan edi. Hali ham bo'lsa, ushbu tashkilotni avvalgiday nufuzli etib qayta ochish kerak.

Nazarimizda, avvalo, atamashunoslikmi, terminshunoslikmi, komissiyami, qo'mitami – buni yaxshilab o'ylab, muhokama qilib olish lozim. Atama bilan termin bitta narsa emas. Atama biror predmetni nomlash uchun tanlangan ot. Bir atama bilan bir necha turdagi narsalar nomlanishi mumkin. Termin esa maxsus bir sohaga rasmiylashtirilgan ilmiy so'z. Atama ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, termin esa faqat bir ma'noga ega bo'ladi. Buni ilmiy sharhlash ko'p vaqtni oladi. Balki Termin va atamalar qo'mitasi deyish maqsadga muvofiqdir. Qo'mita ham komissiyadan ko'ra katta tushuncha. **Yangi tashkilot 30 yil oldingisidan zaif emas, kuchli va mahsuldor qilib shakllantirilishi zarur.**

### QONUN VA QAT'IYAT

"Qonun" degan tushunchaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri qat'iyatlilikdir. **Qat'iyati bor qonun – kuchli. Qat'iyatini yo'qotgan qonun zaiflashadi. Bu hol qonunga itoatsizlikni keltirib chiqaradi. Fuqarolarning qonunga rioya qilish immunitetini susaytiradi. Bunday qonunni amalga oshirish ham imkonsiz bo'lib qoladi. Qat'iyatsizlik rahna solsa, qonun ustuvorligi tantana qilolmaydi.** Shu jihatdan 2019-yil 21-oktabrgacha o'tkazilgan ayrim tashkiliy-huquqiy tadbirlar shundoq ham qator moddalari ishlamayotgan "Davlat tili haqida"gi Qonunning nufuziga ijobiy ta'sir etmadi.

2004-yil 30-aprel kuni "Davlat tili haqida"gi Qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Unga binoan yangi o'zbek lotin alifbosi va imlo qoidalariga to'liq, uzil-kesil o'tish muhlati 2005-yildan 2010-yilga uzaytirildi. Ushbu o'zgartish 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga mohiyatan zid edi. Chunki u asosiy ikki maqsadni ko'zlagandi. Bular: 1) "davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va 2) lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishini ta'minlash". Oradan to'qqiz yil o'tib, keskin ravishda besh yil orqaga surish ana shu "izchil joriy etish" va yangi yozuvga "mukammal o'tish" jarayonlarini sezilarli sekinlashtirdi.

Aslida bunga hayotiy zaruriyat bormidi? Yo'q. Qonun amaliyoti izchil davom etardi. Maktab ta'limi bosqichma-bosqich lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tib bo'lgandi, respublikaning barcha jamoalaridagi fuqarolar yangi imloga davlat tomonidan bepul o'qitib o'rgatilgandi. Mantiqan, endi amaliyotga to'liq o'tish va yangi alifboda savodxonlikni shakllantirishga kirishish mumkin edi.

Qo'shimcha va o'zgartishlar keng xalq ommasi orasida "lotinga o'tarmikinmiz yo kirildda qolarmikinmiz?" degan ikkilanish, taraddud kayfiyatini ham uyg'otdi. Holbuki, bunday maqsad yo'q edi. Mabodo shunaqa bo'lsa, **birrov referendum o'tkazib, xalqning fikrini aniqlab olgan ma'qul bo'lardi.**

Yozuv va savodxonlik – uzoq yillar davomida shakllanadigan hodisa. Yangi bir yozuvni o'rganish va unda

savod chiqarish uchun jamiyat juda sermashaqqat jarayonni boshidan kechirishi, bu sohadagi bilimdan tashqari ko'z xotirasi, qo'l ko'nikmasini shakllantirishi shart. Bu esa yillar mobaynida ming betlab matnlarni o'qish, yozish, uzluksiz va muttasil shug'ullanishni taqozo etadi. Til va yozuv amaliyot bilan tirik va rivojlanishda. 2004-yilgi qo'shimcha va o'zgartishlardan keyin yozuvni o'rgangan, malaka hosil qilayotgan fuqarolar bu mashg'ulotni kamida besh yilga to'xtatdilar. O'rganmaganlar esa bu ishga kirishmay qo'ya qoldilar. *"Davlat tili haqida"*gi Qonunga yana bir qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsa-yu, lotin yozuviga o'tish yana besh o'n yil orqaga surilsa, ungacha biz avlodimiz bilan nafaqaga chiqib ketamiz, o'rnimizga lotinda savod chiqargan avlod kelib o'rmashadi, deya xulosa chiqarib yurgan toifa kishilar ham yo'q emas. Qonunda qat'iyatdan chekinish ularning shunday taxmin-gumonlariga asos berib qo'ydi. **Bu – masalaning ma'naviy tomoni.**

**Masalaning siyosiy mohiyati** ham bor. "Davlat tili haqida"gi Qonunni hayotga tatbiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosatining tarkibiy qismiga aylangan, Qonunni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi tuzilgan va joriy qilingan edi. Qo'shimcha va o'zgartishlar kiritaverish yo'li bilan qonun amaliyoti muddatini uzaytiraverish davlat dasturi bajarilmasligiga olib keldi.

Nihoyat **masala iqtisodiy mohiyatga ham ega.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 16-iyunda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta'minlash yuzasidan davlat dasturini tasdiqlash haqida"gi qarori 3-moddasida shunday deyiladi: *"O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yilgi davlat budjetini shakllantirish chog'ida budjetdagi tashkilotlar uchun lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish bilan bog'liq masalalarni hal qilishga zarur mablag'lar ajratishni nazarda tutsin"*.

Darhaqiqat, milliy mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatning barcha tashkilotlarida ishlaydigan mutaxassislar millati va yoshidan qat'i nazar, davlat tili va yangi o'zbek-lotin yozuviga davlat hisobidan o'qitib o'rgatildi. Ammo, afsuski, Qonun amaliyotida qat'iyat bo'lmaganligi va davlat tili hamda lotin yozuvida ish yuritishga talab, ehtiyoj, majburiyat sezilmaganligi tufayli o'rgangan fuqarolar amal qilmadilar, unutib yubordilar. Demak, o'n yil mobaynida lotin yozuvini o'qitishga sarflangan mablag' zoye ketgan, davlat budjetiga zarar yetkazilgan bo'lib chiqadi. Ehtimol, yangi alifboni o'rganib, amal qilmagan fuqarolar yana besh yilgacha uni unutar va ularni qayta o'qitish, qanchadan qancha savodsizlikni tugatish kurslari ochib, ularni ham mablag' bilan ta'minlashga to'g'ri kelar. Bular uchun davlat xazinasidan hazilakam xarajat sarflanmaydi. Yangi yozuvga o'z izchilligida o'tib ketilganida, yangi alifboni o'rganishga tabiiy ehtiyoj, zaruriyat, balki majburiyat sezilardi va ko'zlangan maqsadga tejamli ravishda erishilardi.

Xo'sh, 1929–1940-yillardagi yangi o'zbek-lotin yozuvi amaliyoti davrida keng xalq ommasi qanday qilib

savodxonlikka erishgan? Bu – hayratomuz emas, oddiy hayotiy tajriba. Zavodlar, fabrikalar, sexlar, kolxozlar, brigadalar, zvenolar, mahallalarda **savodsizlikni tugatish kurslari** ochilgan. Natijada butun xalq yangi alifbo bo'yicha ham qisqa muddatda savodxon bo'lgan. O'n yillik tarixiy davrda yangi o'zbek-lotin yozuvida katta qamrovdagi madaniy meros yaratib qoldirilgan.

Shu nuqtayi nazardan bizning bu sohadagi taklifimiz shuki, **mamlakat miqyosida jamiyatning har bir bo'g'inida zudlik bilan mana shunday o'quv kurslarini ochish lozim.**

O'zbekiston teleradiokompaniyasi, matbuot va nashriyot shoxobchalari, boshqa nufuzli tashkilotlarda **savodxonlik va nutq madaniyatini nazorat qiluvchi mexanizm joriy etilishi zarur.** Chunki aksariyat hollarda tanih suxandonlar, jurnalistlar, aktyorlarimiz buzmoqda. Ularni xizmat joylarida til madaniyati nuqtayi nazardan nazorat qiladigan, tuzatadigan mutaxassis yo'q.

Xuddi shunday chalkashliklarni ayrim shoir va jurnalistlar tomonidan e'lon qilinayotgan yuzaki, taxminiy etimologiyalar ham yuzaga keltiryapti. **Har bir so'z – milliy boyligimiz. Uni asrab-avaylashga burchlimiz.** So'z-tushunchalarga nisbatan bunday xo'jasizlarcha munosabatda bo'lish insofdan emas. Bunday chalkashliklar xalqni chalg'itadi, oddiy odamlarning tushunchalarini noto'g'ri o'zanlarga yo'naltirib yuboradi. Til va, ayniqsa, etimologiya haqidagi maqolalarda hamma narsa aniq bo'lishi kerak. Bu sohada chala, dumbul fikrlar faqat zarar keltiradi.

Yangi tashkilotlarni nomlashda yuz berayotgan xatolarini to'xtatish lozim. Keyingi 15–20 yillar mobaynida **hukumat qarorlarida** yangi tashkil etilayotgan muassasalar nomida imloviy xatolar o'tib ketmoqda va ularning nomlari xato yozilmoqda. **Hukumat qarorida shunday bo'lgani uchun uni tuzatish imkoniyati yo'q.** Masalan, "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti" nomini olaylik. Bu nomdagi "G'afur G'ulom" nashriyot nomi emas. Nashriyot G'afur G'ulom nomiga atab, uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida, hurmati uchun ochilgan. Nashriyotning haqiqiy nomi esa "Adabiyot va san'at". Chunki u adabiyot va san'at sohasidagi kitoblarni nashr etishga ixtisoslashtirilgan. Shuning uchun bu nomda "Adabiyot va san'at" – atoqli ot. U bosh harf bilan yozilishi kerak. Yoki "Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti", "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti" nomlarida ham xuddi shunday. "O'zbek tili va adabiyoti" – ularning ixtisosini bildiradi va u atoqli ot, bosh harf bilan yozilishi kerak. Hukumat qarorlarida esa kichik harf bilan yozilgan. Yoki avvalgi "Toshkent davlat Yuridik instituti" nomida "yuridik" so'zi ixtisosni bildirgani uchun atoqli ot sifatida bosh harf bilan yozilardi. Yangi ochilgan "Toshkent davlat Yuridik universiteti" nomida esa "yuridik" so'zi kichik harf bilan xato yozilmoqda. Chunki hukumat qarorida shunday. Bunday xato yuzlab muassasa nomlarida uchraydi. Buni tuzatish lozim. Chunki imlo qoidalari ham ma'muriyat va fuqaro uchun bab-barobar.

(Davomi kelasi sonda)